

TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHIDA A’ZO DAVLATLARNING O’ZARO HAMKORLIGI VA IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI

Toshkent tibbiyot akademiyasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Shodiqulov Eldor Sherzodovich

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Markaziy Osiyo hududidagi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining paydo bo‘lishi, a’zo bo‘lishi va mazkur tashkilotdagi o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan. Shuningdek, o‘zaro turkey davlatlar hamkorligining bosqichma-bosqich shakllanishi va bugungi kunda hamkorlikning faoliyat taxlil etilgan.

KALIT SO‘ZLAR: “Naxichevan bitimi”, “Strategik tadqiqotlar markazi”, “Turizm”, “Kichik va o‘rta korxonalarini (KO‘B) rivojlantirish”, “Turk investitsiya fondi”, “Ernst & Young”.

ABSTRACT This article is dedicated to the emergence of the Cooperation Council of Turkic-speaking countries in Central Asia, its membership, and its role and importance in this organization. Also, the step-by-step formation of the cooperation between the Turkish countries and the functioning of the cooperation today are analyzed.

KEYWORDS:” Nakhichevan agreement“, ”Center for Strategic Studies“, ”tourism“, ”development of small and medium enterprises (SMEs)“, ”Turkish investment fund“, ”Ernst & Young“.

KIRISH Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining yangi yondashuvlariga tayangan holda ko‘p tomonlama hamkorlik formatlaridagi faoliyatini sezilarli ravishda jonlantirish yo‘lidan bormoqda. Shunday tashkilotlardan biri bu Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini o‘rganish bugungi kundaigi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kengashning asosiy maqsadi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu kengashga O‘zbekiston Respublikasi 2019-yili 14-sentyabrdan **Naxichevan bitimini ratifikatsiya⁵³** va o‘sha yili oktyabrda tuzilmaga rasmiy qo‘sildi. Turkiy Kengashdagi o‘z ishtiroki orqali mamlakatimiz turkiyzabon dunyoda birdamlik ruhi va ishonch muhitini mustahkamlashga sodiqligini va kengash doirasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishgan.

Turkiy davlatlar o‘rtasidagi siyosiy hamkorlikning asosiy platformasi har yili o‘tkaziladigan Davlat rahbarlarining Strategik tadqiqotlar markazimitlari hisoblanadi. A’zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari muntazam ravishda Liderlar Strategik tadqiqotlar markazimitlari doirasida, Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig‘ilishlarida uchrashadilar. Tashqi ishlar vazirlari o‘zaro manfaatdor mavzularni muhokama qilish uchun qo‘sishma uchrashuvlar o‘tkazishi mumkin, ular ko‘pincha ba’zi xalqaro tadbirlarda uchrashadilar. An'anaga ko‘ra, 2011-yildan beri har yili BMT Bosh Assambleyasi Strategik tadqiqotlar markazi doirasida Tashqi ishlar vazirlarining norasmiy uchrashuvlari o‘tkazib kelingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiyani o‘zida jamlagan, qudrati oshib borayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti dastlab, 1992-yili tashkil topgan bo‘lib, 2009-yil 3-oktyabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida qayta ta’sis etildi. Keyingi yillarda mazkur davlatlar bilan aloqalar mustahkamlandi. Oliy va yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyib Erdo‘g‘an 2018-yilning 29-apreldan 1-may kunlarida O‘zbekiston Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a’zo bo‘lish sentyabr oyida Qirg‘izistonning Cho‘lpon ota shahrida bo‘lib o‘tadigan navbatdagi sammitda ishtirok etishni taklif qilindi. Prezidentimiz 2018-yil 3-sentyabr kuni Qirg‘izistonning Cho‘lpon ota shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda fahriy mehmon sifatida ishtirok etdi. 2019-yil 14-sentyabrdan O‘zbekiston Respublikasi “Turkiy tilli

⁵³ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. // 14.09.2019-y., 03/19/568/3746-son

davlatlar hamkorlik kengashini tuzish" to‘g‘risidagi Naxichevan bitimini imzolandi⁵⁴.

Turkiy davlatlar tashkilotining asosiy maqsadlari bu – ko‘pgina tashkilotlardan farqli ravishda mintaqada, avvalo, tinchlikni ta’minlash, savdo-iqtisodiy integratsiyalashuvni rivojlantirishdir. Bundan tashqari, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot va yashil makon umummilliy dasturlarini yanada rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy-texnikaviy, fan va ta’lim sohalarini integratsiyalashtirish, energetika, transport, investitsiya sohalarini kuchaytirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qo‘srimcha qiymat yaratishdan iboratdir.

Turkiy davlatlar tashkiloti o‘z dasturi doirasida sohalarning integratsiyalashuvi, kooperatsiyalar va investitsiyalarni tub aholining farovonligini oshirish uchun keng joriy etish, tadbirkorlik va savdo - sotiqni rivojlanishi uchun bojxona siyosatini soddalashtirish, savdo-sotiqni yengillashtirishda transport infratuzilmalarini yanada rivojlantirish va xalqaro bozorlarga qulay yo‘l ochishni ko‘zlaydi.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, aholisining 60 foizdan ko‘proq‘ini yoshlar tashkil etadigan turkiyzabon davlatlarning so‘nggi yillardagi faoliyatida oliy darajadagi yetakchilar tashabbusi bilan fan va texnika, sog‘liqni saqlash ta’lim, madaniyat, yoshlar, sport va turizm sohalari jonlanib, qadriyatlar tiklanib, ommalashib bormoqda.

Prezidentimizning siyosiy irodasi, ochiq va amaliy tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o‘zgardi, mintaqqa davlatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar mustahkamlandi. Davlatimiz rahbarining Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Ozarbayjon Prezidentlari bilan uchrashuv va muloqotlari Strategik tadqiqotlar markaziarasida turli sohalardagi hamkorlik yanada rivojlandi. Mamlakatimizning Turkiy kengashga a’zo davlatlar bilan o‘zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40 foizdan ziyod oshdi.

⁵⁴ <https://dergipark.org.tr/tr/>

O‘zbekiston Prezidenti bu ko‘rsatkichlardan ancha yuqori marralarga erishish mumkinligini ta’kidlab, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir muhim yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tdi. Avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, yetakchi sanoat korxonalari, bank-moliya institutlari va tadbirkorlik tuzilmalari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish zarurligini ta’kidladi. Transport yo‘nalishlarining integratsiyalashgan tarmog‘ini yaratish, dunyo va mintaqadagi asosiy bozorlarga chiqish masalasiga e’tibor qaratildi. Mamlakatlarni innovatsion asosda rivojlantirish, bu sohaga mas’ul bo‘lgan idoralar, ilmiy-tadqiqot markazlari va vechur kompaniyalar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Turizmni rivojlantirish bo‘yicha ulkan imkoniyatlar borligi, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishi qayd etildi. Shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash, yosh avlodni ilm-ma’rifat asosida tarbiyalash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston rahbarining tashkilot doirasidagi Strategik tadqiqotlar markazimitlarda har safar iqtisodiy, sarmoyaviy, savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya va logistika tizimlarini rivojlantirish, innovatsiyalar, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash sohalariga oid, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sanoat kooperatsiyasini va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, ziyorat turizmi bo‘yicha qator tashabbuslarni faol ilgari surib kelayotgani bejiz emas. Chunki aynan ushbu ustuvor yo‘nalishlarning jadal taraqqiy etishi xalqlarimiz umumiyligiga va aholining turmush darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida 2019-yil 15-oktabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi Strategik tadqiqotlar markazimiti bo‘lib o‘tdi. Unda mazkur tashkilotga a’zo mamlakatlar rahbarlari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sooronboy Jeenbekov, Qozog‘iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev ishtiroy etdi. Kuzatuvchi

mamlakat sifatida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, shuningdek, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Purli Agamurodov anjumanda qatnashdi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi Strategik tadqiqotlar markazimitida ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi. Mamlakatimiz ushbu nufuzli xalqaro tuzilmaga joriy yilda qo‘sildi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatda asosiy maqsad, asosiy prinsip O‘zbekiston manfaati va yana bir bor O‘zbekiston manfaati ekanini doim ta’kidlaydi. Davlatimiz ana shu qat’iy tamoyillar asosida ochiq, do’stona va pragmatik siyosat olib bormoqda. Buning natijasida keyingi yillarda O‘zbekistonning do’stlari, xayrixohlari ko‘paydi. Qo‘sni, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan mutlaqo yangi – sog‘lom siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Xalqaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlari, yangi mexanizmlari joriy etildi.

Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligi O‘zbekistonning iqtisodiyoti oshishiga olib keladi, birgina 2021-yilga qaraydigan bo‘lsak, shu yili O‘zbekiston TDT davlatlari o‘rtasida 9,3 milliard dollar miqdorida savdo-sotiq aylanmasi bo‘lgan. Bu esa O‘zbekiston tashqi savdosining 23 foizini tashkil etib, bu davrda O‘zbekiston va TDT mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo aloqalari qariyb to‘rt barobarga oshdi. Bu natijalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, samarali iqtisodiy yutuqlar tashkilotga O‘zbekiston raislik qilgan davrda turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yuzdan ortiq dastur va chora-tadbirlar natijasidir. Shu bois jahon iqtisodiy platformalarida tashkilotning a’zolari bo‘lgan Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekistonning 2022-yil yanvar-mart oylarida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘sdi.

Turkiy davlatlarning umumiy yer maydoni 4244000 km², aholisi 155,1 million kishi, yalpi ichki mahsuloti 1001,4 milliard dollar, tovar ayirboshlash hajmi 536,08 milliard dollarni tashkil etadi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar dunyo quruqlik hududining 0,8 foizini, aholisining 2 foizini, yalpi ichki mahsulotining 1,2 foizini, tovar aylanmasining 2,5 foizini tashkil qiladi. 2022-yilning boshida Turkiya iqtisodiyotida 7,3 foiz, Ozarbayjonda 6,8 foiz, O‘zbekiston

iqtisodiyotida 5,8 foiz, Qirg‘izistonda 4,5 foiz, Qozog‘iston iqtisodiyotida esa 4,4 foizga o‘sish kuzatilib, mintaqada ochiq iqtisodiy muhit yaratilgan va mamlakatimiz 3-o‘rinda iqtisodiy tashabbusni egallagan⁵⁵.

Xususan, Turkiy davlatlar tashkilotining 2022-yilning yakunlariga qaralganda, O‘zbekistonning TDT davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 10,2 foizga oshdi va 7,4 milliard dollarni tashkil etgan. Shuningdek, eksport hajmi – 3,2 milliard dollar (o‘sishi 10,6 foiz), import – 4,2 milliard dollar (o‘sishi 9,9 foiz). Birgina 2022-yili O‘zbekiston va Turkiy davlatlar tashqi savdosining aylanmasi 8,3 milliard, eksport hajmi 3,1 milliard dollarni tashkil etadi.

MUHOKAMA Turkiy Davlatlar Tashkiloti turkiy davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka, ularning dunyo bilan iqtisodiy aloqalariga katta ahamiyat beradi. O‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik umuman turkiy hamkorlikning mustahkam asosi va o‘zagidir. Kotibiyat a’zo davlatlarning Iqtisodiyot bo‘yicha mas’ul vazirliklari va boshqa tegishli institutlari bilan yaqin hamkorlikda muntazam ravishda turli mavzular bo‘yicha o‘quv va tajriba almashish dasturlarini tashkil etadi, a’zo davlatlarning xususiy sektori a’zolarini muntazam ravishda texnik hamkorlikni tashkil etish orqali birlashtiradi. A’zolari o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida investorlar va ishbilarmonlar uchun tashriflar, Turkiy ishbilarmonlar kengashining biznes forumlari va yig‘ilishlari, ishbilarmonlar uchun davra suhbatlari o‘tkazib turish lozimdir.

Tashkilot tashkil etilganidan buyon iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha jami 11 ta vazirlar va 13 ta ishchi guruh yig‘ilishlari tashkil etildi. Ushbu sohadagi yaqin hamkorlik natijasida a’zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha anglashuv memorandumlari imzolandi⁵⁶. 2019-yil 15-oktabr kuni Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining “Kichik va o‘rta korxonalarni (KO‘B) rivojlantirish” mavzusidagi 7-Strategik tadqiqotlar markazimitida davlat rahbarlari o‘zaro savdo va investitsiyalarni engillashtirish

⁵⁵ <https://turkicstates.org/>

⁵⁶. Организация тюркских государств: первый саммит, новые приоритеты и возможности. <https://yuz.uz/ru/news/organizatsiya> -tyurkskix-gosudarstv-pervy-sammit-nove-prioritet-i-vozmojnosti.

maqsadlariga sodiqligini yana bir bor ta’kidladilar. Shuningdek, xususiy sektorlar o‘rtasida hamkorlik va almashinuvlarni kengaytirish; savdo reestriga mas’ul bo‘lgan milliy agentliklarni ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va xalqaro savdoni rivojlantirish uchun a’zo davlatlardagi tadbirkorlarning transchegaraviy ishlari, harakati va hamkorligiga ko‘maklashish maqsadida potentsial hamkorlik ustida ishslashga chaqirdi⁵⁷. Shuningdek, Turkiy davlatlar Savdo-sanoat palatasiga a’zo tashkilotlarga ichki savdoni ko‘paytirish va a’zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ishbilarmonlik dasturlari va loyihalarini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

2021-yil 10-sentabr kuni Ozarbayjon poytaxti Baku shahrida Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot bo‘yicha mas’ul vazirlarining 10-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda vazirlar kun tartibidagi masalalar, jumladan, “Texnik-iqtisodiy asoslash” va Turk investitsiya fondini tashkil etish to‘g‘risida bitim; Turkiy davlatlarning savdo-sanoat palatalarining (TSSP) huquqiy nizomi va keyingi faoliyati; a’zo davlatlarda turkiy savdo uylarini tashkil etish. Vazirlar, shuningdek, 2021-yilda Vengriya (Budapesht) va 2022-yilda Qirg‘iziston (Bishkek)da biznes va sarmoyaviy forumlarni tashkil etish masalalarini ham muhokama qildilar. Vazirlar tomonidan “Turli turdagи iqtisodiy zonalar o‘rtasida axborot va tajriba almashish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi”ni imzolash marosimi” va uchrashuvdan so‘ng “Turkiy biznes mukofoti”ning taqdirlash marosimi tashkil etildi. Vazirlar uchrashuvi yakunlari bo‘yicha matbuot anjumani hamda OAV vakillari ishtirokida Kotibiyat tomonidan SESRIC bilan hamkorlikda tayyorlangan “Turkiy tilli davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasidagi savdo va investitsiya aloqalari bo‘yicha tadqiqot hujjati” taqdimoti tashkil etildi.

2022-yil 9-noyabr kuni Strategik tadqiqotlar markaziarqand shahrida Turkiy Davlatlar Tashkilotining 9-Strategik tadqiqotlar markazimiti arafasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot va savdo bo‘yicha mas’ul vazirlarining 11-

⁵⁷. Стамбульская декларация // Green Technologies and Smart Cities in the Digital Age. 2021-г. № 5. С.-5–6.

yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi⁵⁸. Yig‘ilish kun tartibi doirasida Iqtisodiyot va savdo vazirlari va vazir o‘rinbosarlari Turkiy investitsiya jamg‘armasi, Turkiy savdo uylari va “TURAN”ni tashkil etish masalalari bo‘yicha fikr almashdilar Maxsus iqtisodiy zona, TDTga a’zo davlatlarning ixtisoslashgan tashkilotlari negizida “Turkiy tilli davlatlarning savdo hamkorligi ilmiy-tadqiqot markazi” va “Muhandislik va texnologiyalar markazlari”ni tashkil etish. Tomonlar, shuningdek, TDT doirasida ko‘p tomonlama “Xizmatlar va investitsiyalar bo‘yicha erkin savdo bitimi”, “Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitim”ni muhokama qilishdi va takliflar berishdi; 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan TDTga a’zo davlatlarning investitsiyalarni rag‘batlantirish agentliklari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish va potentsial investitsiya loyihalari qo‘shma TDT katalogini⁵⁹ va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan TDT strategiyasida belgilangan savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni tayyorlash. Uchrashuv yakunida delegatsiyalar rahbarlari Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot va savdo masalalari bo‘yicha 11-Vazirlar yig‘ilishining Kommyunikesini imzoladilar hamda savdo hajmini oshirish bo‘yicha yangi chora-tadbirlar va tashabbuslarni ishlab chiqadigan “Savdoni osonlashtirish strategiyasi hujjati”ni ma’qulladilar, shuningdek, a’zo va kuzatuvchi davlatlardagi savdo to‘sqliari va cheklovlarini bartaraf etish.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti soyaboni ostida shu kunga qadar 500 dan ortiq ishbilarmonlar ishtirokida 6 ta Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishi va 5 ta Biznes forum yig‘ilishi o‘tkazildi. Bundan tashqari, a’zo davlatlar tadbirkorlari uchun 3 ta davra suhbatи hamda milliy savdo va sanoat palatalari o‘rtasida tajriba almashish dasturlari bilan bir qatorda investorlar uchun bitta texnik tashrif tashkil etildi. Yaqinda 2022-yil 16-sentabr kuni Ozarbayjonning Shusha shahrida Qorabog‘ mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan “Shusha”

⁵⁸. Самарканд декларация // Free Trade Agreement on Services and Investments. 2022-г. № 6. С.-20.

⁵⁹. Organization of Turkic States attaches great importance to economic cooperation. <https://www.turkicstates.org/en/isbirliqi-alanlari#2-economic-cooperation>.

turkiy biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Turkiy davlatlar Savdo-sanoat palatasi, Ozarbayjon Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Tadbirkorlar Tashkilotlari Milliy Konfederatsiyasi (ASK) hamda Savdo-sanoat palatalarining yuqori mansabdor shaxslari hamda a’zo va kuzatuvchi davlatlardan 200 dan ortiq biznes vakillari ishtirok etdi. Delegatsiyalar rahbarlarining rasmiy so‘zlaridan so‘ng forum TDT moderatorligida “Qorabog‘ va Sharqiy Zangazur iqtisodiy rayonida investitsiya imkoniyatlari” mavzusidagi navbatdan tashqari sessiya bilan davom etdi⁶⁰.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti a’zo davlatlar kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) o‘rtasidagi savdoga to‘sinqilik qiluvchi jismoniy, byurokratik va lingvistik to‘sinqlarni amalda bartaraf etadigan onlayn platforma yaratishni maqsad qilgan. Ushbu platforma kichik va o‘rta biznes sub'ektlari o‘rtasida hech qanday vositachilarsiz tezkor aloqani ta'minlaydi va savdo salohiyatini taqdim etish va hozirda turli xil forumlar orasida tarqalgan faoliyatni yagona veb-portal ostida to‘plash orqali ma'lumot to‘playdi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti aloqani engillashtirish va tegishli ma'lumotlarni markazlashtirish bilan birga, tijorat aloqalarining tezligi va hajmini oshirishga katta yordam beradi.

TDK yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni kuchaytirish orqali a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro investitsiya imkoniyatlarini oshirish hamda tadbirkorlikni, ayniqsa, kichik va o‘rta biznesda (KO‘B) rivojlantirishga hissa qo‘sadigan moliyaviy mexanizmni yaratish ustida ishlamoqda. va pirovardida a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga turtki beradi. Shu bois Turkiy sarmoya va taraqqiyot jamg‘armasining tashkil etilishi Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlarning iqtisodiy salohiyatini safarbar etishga qodir kuchli moliyaviy vositani taqdim etadi. Bu yo‘nalishda Kotibiyat Turkiy investitsiya jamg‘armasini tashkil etish tartibini puxtalik bilan amalga oshirdi. Kotibiyat “Ernst & Young” konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda bozor raqobati va talabni baholash, investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, boshqaruv va tashkil etish, moliyaviy

⁶⁰. Тюркский саммит в Анталье. <http://www.iimes.ru/?p=5165>

model va Fondning iqtisodiy ta'sirini keng tahlilini o'z ichiga olgan texnik-iqtisodiy asoslandi.

Istanbulda joylashgan Turkiy savdo-sanoat palatasi (TSSP) rasman 2019-yilda tashkil etilgan bo'lib⁶¹, a'zo va kuzatuvchi davlatlarning Savdo-sanoat palatalari hamda biznes hamjamiyatlaridan iborat. TSSP Turkiy Davlatlar Tashkiloti soyaboni ostida amalga oshiriladigan iqtisodiy hamkorlikning asosiy mexanizmi bo'lib, Davlat rahbarlari kengashi tomonidan a'zo davlatlar o'rtasida ichki savdo ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha barqaror biznes dasturlari va loyihibarini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Shuningdek, Turkiy davlatlar Kasaba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jug'rofiy kengash, Qurg'oqchilikni bartaraf etish instituti, Notarial idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar paydo bo'ldi. Shunday ekan tili, qadriyatlari bir qardosh va azaliy birlikda bo'lgan xalqlar o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishi mintaqada savdo, iqtisodiy va innovatsion bozor islohotlarini amalga oshirish, industrial sanoat loyihibarini kengaytirish va xalqlarimiz farovonligini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. // 14.09.2019-y., 03/19/568/3746-son
2. <https://dergipark.org.tr/tr/>
3. <https://turkicstates.org/>
4. Организация тюркских государств: первый саммит, новые приоритеты и возможности. <https://yuz.uz/ru/news/organizatsiya-tyurkskix-gosudarstv-pervy-sammit-nove-prioritet-i-vozmojnosti>.
5. Стамбульская декларация // Green Technologies and Smart Cities in the Digital Age. 2021-г. № 5. С.-5–6.
6. Самарканд декларация // Free Trade Agreement on Services and Investments. 2022-г. № 6. С.-20.

⁶¹. Тюркоязычные государства создали Совет банковских ассоциаций <https://kapital.kz/finance/110153/tyurkoyazychnyye-gosudarstva-sozdali-sovet-bankovskikh-assotsiatsiy.html>

7. Organization of Turkic States attaches great importance to economic cooperation. <https://www.turkicstates.org/en/isbirligi-alanlari#2-economic-cooperation>
 8. Тюркский саммит в Анталье. <http://www.iimes.ru/?p=5165>
 9. Summit meeting of the heads of state government of the organization of Turkic states Strategik tadqiqotlar markaziarkand // 2022-y. p.-85-96.
 - 10.Тюркоязычные государства создали Совет банковских ассоциаций <https://kapital.kz/finance/110153/tyrkoyazychnyye-gosudarstva-sozdali-sovet-bankovskikh-assotsiatsiy.html>
-